# O‘quv dasturi pasporti

**O‘quv dasturi uzluksiz tibbiy va farmatsevtik ta’lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025-yil 14-avgustdagi № UMO-140-sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.**

Amal qilish muddati 2030-yilgacha.

| | |
|---|---|
| **Ta’lim muassasasi nomi** | Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi |
| **Kafedra / bo‘lim** | Travmatologiya va ortopediya |
| **O‘quv dasturi nomi** | Travmatologiya va ortopediya ixtososlashtirish |
| **O‘qish turi** | Umumiy malaka oshirish |
| **O‘quv dasturi muallifi (mualliflari)** | **O‘quv dasturi mualliflari:** M. E. Irismetov, X. M. Karimov, A. R. Xoshimov, R. K. Qobilov, B. U. Xolmatov |
| **Siklning umumiy soati** | 504 kredit |

**Siklda dars beradigan o‘qituvchi va trenerlar**

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
|  t.f.d., professor Irismetov M.E. |  t.f.n., dotsent Karimov X.M. |  t.f.n., assistent Xoshimov A.R. |  Qobilov R.K |  PhD. Xolmatov B.U. |

| | |
|---|---|
| **Maqsad** | Uzoq vaqt davomida faoliyat yuritmagan va turli sabablarga ko‘ra tibbiy amaliyotdan chetda qolgan travmatolog va ortopedlarning ixtisosligi hamda malakasini qayta tiklashga qaratilgan ushbu kurs, mazkur sohadagi jahon ilmiy yutuqlari va zamonaviy amaliyot asosida yangi professional bilim hamda ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, ilg‘or tibbiy texnikalar bilan tanishtirishni maqsad qiladi. |
| **Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent** | Travmatolog va ortopedlar internatura, klinik ordinatura, magistratura yoxud birlamchi ixtisoslashtirish bo‘yicha kerakli xujjatlarga ega bo‘lganlar uchun mo‘ljallangan. |

| | |
|---|---|
| **Sikl vazifalari** | Tinglovchilarda mushak-skelet tizimi shikastlanishlari va kasalliklarini aniq tashxislash, ularni kompleks baholash va samarali yechimlar ishlab chiqishda mantiqiy, tanqidiy hamda analitik yondashuvni rivojlantirish;<br>Tinglovchilarni tayanch-harakat tizimi shikastlanish mexanizmi va kasallik patogeneziga asoslangan holda konservativ va jarrohlik usulda davolash metodlarini chuqur oʻzlashtirishda yondashish;<br>Tinglovchilarda favqulodda va oddiy vaziyatlarda yuqori malakali birinchi tibbiy yordam koʻrsatish koʻnikmalarini rivojlantirish;<br>Travmatologiya va ortopediya sohasida yangi paydo boʻlayotgan ilgʻor texnologiya va metodikalarni tinglovchilar orqali amaliyotga tatbiq etish va uni doimiy nazorat qilish, shuningdek, innovatsion yondashuvlarni klinik jarayonga integratsiya qilish; |
| **Sikl tarkibi** | Mushak-skelet tizimining anatomik tuzilishi, biomexanikasi va funksional afzalliklarini chuqur bilishi, bu bilimlarni klinik tashxis va davolash jarayonida qoʻllay olishi.<br>Bemor umumiy va klinik holatini chuqur tahlil qilib, diagnostika va davolash protseduralarini milliy va xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshirishi.<br>Oʻz ixtisosligi doirasida kasalliklarni aniqlash va belgilangan protokollar asosida davolash usullarini qoʻllash qobiliyatiga ega boʻlishi.<br>Amaliy diagnostika va davolash usullarini real klinik sharoitlarda tezkor va samarali qoʻllashi.<br>Shaxsiy ish jarayonini samarali rejalashtirish, klinik koʻrsatkichlarni tahlil qilish va natijalarni monitoring qilishni.<br>Tibbiy etika va professional deontologiya qoidalariga qat’iy rioya qilish hamda insonparvarlik prinsiplarini amalga |

<table>
<tr><td></td><td colspan="2">oshirishni.</td></tr>
<tr><td>O‘qish bazalari<br><br>1. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.<br></td><td colspan="2"></td></tr>
<tr><td></td><td></td><td></td></tr>
</table>